- ma'lumotlar tahlili. Ma'lumotlar tahlili operatsiyalarni yaxshilash, tendensiyalarni aniqlashga asoslangan qarorlarni qabul qilish uchun amalga oshiriladi. U prognoz analitikasi, mijozlar siyosati va risklar tahlilida qo'llanilishi mumkin;

- infratuzilmani modernizatsiyalash. Infratuzilmani modernizatsiya qilish tarkibiga bank faoliyati ko'lamini kengaytirish va iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash uchun bulutli hisob-kitoblar, virtual tizim va boshqa texnologiyalarni kiritish mumkin;

- risklarni boshqarish. Risklarni boshqarish tarkiban risklarni aniqlash, monitoring qilish va boshqarish bo'yicha strategiya va jarayonlar amalga oshirishdan iborat. Unga risklarni baholash va talablarga rioya qilish proseduralarini joriy etish, xavfsizlikni ta'minlash va risklarni pasaytirish strategiyalarini kiritilgan (Raxmanov, 2023).

Ye.O.Shashkina o'z tadqiqot ishida “Moliyaviy texnologiyalar ta'siri ostida bank sektorining transformatsiyasi – bank faoliyatining tashkiliy va boshqaruv yo'nalishlariga tegishli bo'lgan yangi raqamli texnologiyalarning paydo bo'lishi hisobiga bank sektoridagi tuzilmaviy o'zgarishlardir. Moliyaviy texnologiyalar deganda moliya sektorida innovasion mahsulot va xizmatlarni yaratish imkonini beruvchi unikal texnologiyalar nazarda tutiladi. Bank sektorida eng ko'p qo'llaniladigan texnologiyalar sirasiga sun'iy ong, katta hajmli ma'lumotlar, taqsimlangan reyestr, bulutli hisob-kitoblar, virtual va qo'shilgan reallik, buyumlar interneti va mobil texnologiyalari kiradi. Bank sektoridagi transformasion jarayonlar sektorning institusion transformatsiyasi, bank xizmatlarini ko'rsatish kanallari transformatsiyasi va biznes-modellar transformatsiyasini qamrab oladi. Ko'rib chiqilayotgan yo'nalishlar nuqtai-nazaridan, moliyaviy texnologiyalar bir tomondan, bank xizmatlarini ko'rsatishda raqobat pozitsiyasini mustahkamlash va bank xizmatlarini ko'rsatish sifatini oshirish, ikkinchi tomondan bank faoliyati va uning kelajagi uchun xavflarni yuzaga keltiruvchi omil sifatida talqin etilishi mumkin” Banklarni transformatsiyalash bank xizmatlarini taqdim etishning zamonaviy usullarini keng joriy etishni nazarda tutadi. Bunda asosan bank filiallari soni kamayishi, kredit berishda yoki mablag'larni investisiya qilishda onlayn usuldan keng foydalanish nazarda tutiladi (Ye.O.Shashkina 2020).

Bank faoliyatini o'zgartirish va raqamlashtirish muammolariga doir tadqiqotlar olib borgan A.I.Serebrennikova, N.E.Sokolinskaya” transformatsiya davrining murakkabligini qayd etib, bank amaliyotida modernizatsiya va innovatsiyalar zarurligini ta'kidlaydilar. Bunday transformatsiya bank sektori tomonidan unga xos bo'lgan risklarga e'tiborning kuchayishi bilan birga keladi” [6].

Xorijiy mualliflar X.Ma, Ch.Meng, D.Yang, X.Vang “raqamli texnologiyalarning iqtisodiyotning turli tarmoqlariga (sanoat, moliya sektori, davlat xizmatlari sektori) ta'sirini ko'rib chiqadilar. Xitoyda raqamli transformatsiyaning mamlakat o'ziga xos xususiyatlarini aniqlaydilar” [7]. “Raqamli transformatsiya sharoitida biznes modellarini transformatsiya qilish masalasi P.Vayl va S.Uorner ishlarida o'rganilgan” [8].

Kravchenko D. Bankning Mobil banking borasida quyidagicha ta'rifni keltirib o'tgan. Telekommunikatsiya kompaniyalari bilan hamkorlik mobil bankingni nafaqat qulay, ulanish oson, balki tejamkor ham qiladi. Uyali aloqa sizga xaridlar uchun to'lovlarni amalga oshirish, yangi omonatlarni ochish, pul o'tkazmalarini amalga oshirish va hisobingiz holati haqida ma'lumot olish imkonini beradi. Barcha operatsiyalar real vaqt rejimida amalga oshiriladi. Shu bilan birga, xizmat xavfsiz va ishonchli, chunki u uch bosqichli himoya tizimidan foydalanadi [2].

Radkovskaya N.P. o'z ilmiy izlanishlarida globallashtirish sharoitida xar bir bank va bank tizimi o'z optimal boshqaruv modelini izlashdan iboratdir deb, u iqtisodiyotda risklarni kamaytirish va iqtisodiyotni rivojlantiradi degan [3].

Raqamli texnologiyalardan foydalanish xam bank xizmatlarining deyarli hamma joyda va kechayu kunduz mavjudligi tufayli mijozlar bazasini kengaytiradi. Bank sektorini raqamlashtirish jarayoni quyidagi elementlarni



o'z ichiga oladi: mijozlar bilan ishlash tajribasini tahlil qilish, taqdim etilayotgan mahsulotlar va xizmatlarni raqamlashtirish, shuningdek tashkilotning ichki jarayonlarini o'zgartirish.

Banklarni transformatsiyalash mijozlar bilan ishlash tajribasini to'liq o'rganish va mavjud ehtiyojlarni tahlil qilish hamda yangi ehtiyojlarni aniqlash orqali ta'minlanadi. Aynan bank xizmatlari iste'molchilari banklar innovasion rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi, chunki ular o'z ehtiyojlarini ifodalash orqali zamonaviy bank mahsulotlari va xizmatlariga talablarni shakllantiradi. Mijozlar banklar bilan o'zaro ishlash tajribasini ma'lum bir xizmatni olish qanchalik oson va qulay bo'lganiga qarab baholaydilar, shuning uchun bank sektori mijozlar bilan ishlash tajribasini doimiy ravishda o'rganishi, ularning ishidagi kamchiliklarni aniqlashi kerak, chunki yangi mijozlar yanada zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni talab qilishi mumkin.

Avvallari bank faoliyatining samaradorligi mahsulot va xizmatlarni sotish maqsadli ko'rsatkichlarini oshirish orqali baholanardi, ammo raqamli iqtisodiyot davrida banklar zamonaviy raqamli muammolar bilan hisoblashishlariga to'g'ri keladi: hozirgi vaqtda banklar shoshilinch ehtiyojlari bilan mijozlarga ko'proq e'tibor qaratmoqdalar. Internetga ulangan mobil telefondan foydalanish orqali milliardlab potensial mijozlarga xizmat ko'rsatish mumkin, bu esa banklarni raqobatdosh ustunliklarni saqlab qolish uchun foydalaniladigan raqamli texnologiyalarni doimiy ravishda takomillashtirishga majbur qiladi. Barclays banki onlayn-banking tizimini joriy qilgan birinchi banklardan biri: endi mijozlar bank filiallariga oyiga o'rtacha ikki marta tashrif buyurishadi, mobil bank xizmatlaridan esa oyiga 18-martagacha foydalaniladi.

Banklarda ichki jarayonlarni o'zgartirish ham bank sektorini raqamli rivojlantirishning muhim shartidir. Raqamli, mijozlarga yo'naltirilgan texnologiyalarni joriy etish bilan bir qatorda boshqaruv, rahbarlik qilish va nazoratga yondashuvlarni takomillashtirish zarur. Banklarning to'laqonli raqamli o'zgarishiga asosiy to'siq raqamli iqtisodiyotda ishlash uchun zarur ko'nikma va ko'nikmalarga ega xodimlarning yetishmasligi bo'lishi mumkin. Mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish tizimlari (CRM) orqali zamonaviy ma'lumotlarni tahlil qilish texnologiyalaridan foydalanish banklarning raqamli o'zgarishi elementlaridan biridir, ammo statistika shuni ko'rsatadiki, to'rtta bankdan faqat bittasi o'z faoliyatiga bunday ma'lumotlarni tahlil qilish tizimlarini joriy qilishni rejalashtirmoqda.

Banklarni transformatsiyalash raqamli strategiyani ishlab chiqish va qo'llashga asoslangan kompleks yondashuvni talab qiladi. Raqamli transformatsiyalash moliya-kredit faoliyatining barcha jabhalarini, shu jumladan banklarni boshqarish mexanizmlarini qamrab oladi, shuning uchun maksimal samaradorlikka erishishga yordam beradigan yechimlarni ishlab chiqish uchun bank sektorini transformatsiyalash boshqa rivojlanish strategiyalari bilan muvofiqlashtirilishi kerak.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiya usuli, obektivlik tamoyili, kuzatish, qiyosiy tahlil, usullaridan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

2023-yilda bank tizimining sof foydasi 2020-yilga nisbatan 24 foizga oshib, 12, 4 trln. so'mni, olingan yalpi daromadlar hajmi 128,7 trln. so'mni, bank xarajatlari esa 116,4 trln. so'mni tashkil qildi.

Jami daromadlarning 67% foizli daromadlar hissasiga to'g'ri kelsa, 33 % foizsiz daromadlar tashkil etdi va daromadlarning 88,3% kredit va mijozlarning majburiyatlari, 6,2 % boshqa banklarga joylashtirilgan mablag'lar, qimmatli qog'ozlar bo'yicha olingan daromadlar esa 5,5 % ni tashkil etdi.

2023-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra mamlakatimizda 35 ta tijorat banki faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, 10 ta kapitalida davlat ulushi mavjud banklar, 13 ta aksiyadorlik tijorat banklari, 19 tasi xususiy va 6 tasi xorijiy bank kapitali ishtirokidagi banklar hisoblanadi. 2020-yilda respublika hududlarida tijorat banklarining filiallari soni 867 tani tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning 1-yanvar holatiga 696 tani tashkil etdi. Mini banklar 69 taga, bank xizmat ko'rsatish ofislari – 1747 ta, "24/7" rejimida ishlaydigan bank shoxobchalari – 3723 taga yetdi. Bu esa mamlakatda banklarni transformatsiyalash orqali bank infratuzilmasini yanada rivojlanayotganligidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasi moliya bozorining eng rivojlangan ishtirokchilaridan biri bu bank tizimi hisoblanadi. Mamlakatimizda banklarni transformatsiyalash va davlat ulushlarini bosqichma-bosqich kamaytirishda xorijiy investorlarni jalb etish, shuningdek, xorij moliya korporatsiyalar yordamida transformatsiyalash jarayonlarini olib borish maqsadida bir qator yirik moliya tashkilotlari va tahlilchilar bank tizimiga jalb qilingan.


2024-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra mamlakatimizda 36tani tashkil etib, kapitalida davlat ulushi mavjud banklar 9 tani, xususiy banklar 27 tani tashkil etmoqda.

2023-yilda davlat ishtirokidagi korxonalar, shu jumladan, tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi, investisiyaviy jozibadorligi hamda operasion samaradorligini oshirish, xususiylashtirishga tayyorlash va bank



tizimiga strategik investorlarni jalb qilish borasida “O‘zsanoatqurilishbank” ATB ning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va xususiylashtirishni jadallashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarorlari qabul qilindi.


“Ipoteka-bank” ATIB dagi davlat ulushining kamayishi, tijorat banklarining kapitallashuv darajasining oshirilishi hamda bank xizmatlari bozoriga 3 ta yangi bankning kirib kelishi jami bank sektori aktivlaridagi davlat ulushini 2022-yildagi 78 foizdan 68 foizgacha, jami bank kapitalidagi ulushini esa 78 foizdan 65 foizgacha pasayishiga xizmat qildi.



1-rasm. Tijorat banklari kapitali va aktivlari daromadliligi tahlili (foizda)¹

“Ipoteka-bank” ATIBdagi davlat ulushining kamayishi, tijorat banklarining kapitallashuv darajasi oshishi hamda bank xizmatlari bozoriga 3 ta yangi bankning kirib kelishi jami bank sektori aktivlaridagi davlat ulushining 2022-yildagi 78 foizdan 68 foizgacha, jami bank kapitalidagi ulushining esa 78 foizdan 65 foizgacha pasayishiga xizmat qildi.

Transformatsiyalash olib borilayotgan tijorat banklarining xususiy kapital rentabellik darajasi tahlil qilinganda, “Ipoteka bank”da bu ko‘rsatkich 10,81 %, “Milliy bank”da 9,62 %, “Mikrokreditbank”da esa 0,09 %ni tashkil etmoqda. Aktivlar rentabelligi “Ipotekabank”da 1,72 %, “Milliybank”da 1,35 % va “Mikrokreditbank”da 0,02 % ko‘rsatkichga ega. “Mikrokreditbank”da yuzaga kelgan mavjud moliyaviy holatning asosiy sababi sifatida bank kredit portfelida muammoli kreditlar NPL ulushining 6,7 % ga yetgani ko‘rsatilmoqda, bu esa bankning aktivlar sifati va moliyaviy barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.



2-rasm. Banklarning sof foydasi va daromaddagi ulushi tahlili²

1 <https://new.openinfo.uz> ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

2 <https://new.openinfo.uz> ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.



Bozordagi daromad ulushi bo'yicha "Milliy bank" yetakchilik qilmoqda va uning ulushi 16,20 %ni tashkil etadi. Undan keyin "Agrobank" 13,16 % bilan ikkinchi o'rinda turadi. Eng kichik ulush esa Mikrokreditbank (2,16 %) va Turonbank (1,33 %) hissasiga to'g'ri keladi. Umuman olganda, davlat banklarining jami daromaddagi ulushi 67,21 %ni, xususiylar banklarniki esa 32 %ni tashkil etmoqda.

Mamlakatimizda transformatsiyalash jarayonini samarali tashkil etish, korporativ boshqaruv tizimini samaradorligini oshirishda transformatsiyalash olib borilayotgan banklarga yetuk malakaga va tajribaga ega bo'lgan mutaxassislar bank kengashiga mustaqil a'zo sifatida jalb etildi.

Quyidagi 1-jadvalda PF-5992-sonli farmon asosida amalga oshirilishi rejalashtirilgan maqsadli ko'rsatkichlar va ularning 2024-yil 1-oktyabr holatidagi bajarilishi keltirilgan. Tahlil natijalariga ko'ra, faqatgina bank aktivlarining yalpi ichki mahsulotga (YAIM) nisbati bo'yicha belgilangan maqsadli ko'rsatkichga erishilgan. Xususiylar bank aktivlarining bank sektori aktivlaridagi ulushi o'zgarishsiz qolgan. Bu esa davlat banklari, xususiylar banklarga nisbatan bozorda hali hamon yetakchi moliyaviy ko'rsa borasida yetakchi ekanini ko'rishimiz mumkin.

"Banklarning mobil ilova dasturlari orqali jismoniy shaxslarning masofadan turib onlayn tarzda amalga oshirgan operatsiyalari hajmi 2023-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra 250,1 trln so'mni tashkil etdi. Mobil ilova dasturlari orqali amalga oshirilgan onlayn depozit operatsiyalari hajmi 46,5 trln so'm, onlayn konversiya amaliyotlari 27,4 trln so'm, onlayn mikroqarzlar 13,3 trln so'm va kreditlarni so'ndirish hajmi 15,3 trln so'mni tashkil etdi"³

1-jadval. PF-5992-sonli farmonga asosan bank tizimini isloh qilish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar va uning 01.10.2024-yildagi holati (Farmon, 2020)


№	Ko'rsatkichlar	Maqsad			Amaldagi holat
		2021	2022	2023	2024
1.	Xususiylar banklar aktivlarining bank sektori aktivlari umumiy hajmidagi ulushi	17-20%	35-40%	60%	33%
2.	Banklarning xususiylar sektor oldidagi majburiyatlarining majburiyatlar umumiy hajmidagi ulushi	30-40%	60%	70%	32.6%
3.	Depozitlarning banklar majburiyatiga nisbati	41-45%	45-50%	50-60%	45.57%
4.	Bank aktivlarining YAIMga nisbati	53-54%	54-55%	55% dan ko'p	54-56%
5.	Bank depozitlarining YAIMga nisbati	19-21%	22-24%	25-27%	18-21%

Shuningdek, hisobot yilida masofaviy xizmatlardan foydalanuvchi bank mijozlari soni qariyb 1,5 barobarga oshib, 2025-yil 1-yanvar holatiga 52,9 mlnga yetgan bo'lsa, iyul holatiga ko'ra, 65,7 mln ni tashkil etgan. Bunda, ushbu foydalanuvchilarning 1,6 mln tasi tadbirkorlik subektlari, 65,7 mln tasi jismoniy shaxslar bank kartalari hissasiga to'g'ri keladi.

Banklarning mobil ilova dasturlari orqali jismoniy shaxslarning masofadan turib onlayn tarzda amalga oshirgan operatsiyalari hajmi hisobot yilida 1,6 barobarga oshib 396,7 trln so'mni tashkil etdi.

Bugungi kunda tijorat banklari o'z mijozlariga ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini yaxshilash, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi xizmat turlarini yaratish hamda xizmat ko'rsatish tannarxini pasaytirish maqsadida yangi imkoniyatlar izlashga intilmoqda. Shu yo'nalishda banklar o'z strategiyalarini ishlab chiqib, amaliyotga tatbiq etmoqda. Ba'zi banklar ofis va xizmat ko'rsatish tarmoqlarini, shu jumladan, an'anaviy operatsiyalarni masofadan boshqarish imkonini beruvchi ilg'or texnologiyalar yordamida kengaytirishga e'tibor qaratib, boshqalar esa xizmat ko'rsatish jarayonlarini to'liq onlayn shaklda yo'lga qo'yishni afzal ko'rmoqda.

3 O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari www.cbu.uz




3 - rasm. O'zbekistonda masofadan bank xizmatlaridan foydalanuvchilarning tijorat banklari bo'yicha taqsimlanishi (01.01.2024 y. holatiga nisbatan)⁴

Bugungi kunda mamlakatimizda 2025-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra 44 ta to'lov tashkilotlariga lisenziya berish amaliyoti davom ettirildi. Bugungi kunda aholi orasida nafaqat banklar, balki to'lov tashkilotlariga ham talab ortib bormoqda. To'lov tashkilotlari orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar hajmi joriy yilda 333 trln.so'mni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan 1,8 barobarga oshgan.

Hisobot yilida jismoniy shaxslar tomonidan to'lov tashkilotlarining xizmatlaridan foydalangan holda kommunal xizmatlar uchun – 26,2 trln so'm, mobil operatorlar xizmatlari uchun – 14,8 trln so'm, davlat xizmatlari uchun – 14,3 trln so'm, kredit to'lovlari uchun – 5,7 trln so'm, byudjet va soliq to'lovlari uchun – 5,3 trln so'm mablag' o'tkazilgan.

Umumiy hisobda jismoniy shaxslar tomonidan ushbu yo'nalishlarda to'lov tashkilotlari orqali 34,8 trln so'm miqdorida to'lov amalga oshirilgan. Shuningdek, 2023-yilda masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni qariyb 1,5 barobarga ortib, 2024-yil 1-yanvar holatiga 44,1 million nafarga yetdi. Shu jumladan, ularning 1,3 million nafari tadbirkorlik subektlari, 42,8 million nafari esa jismoniy shaxslar hissasiga to'g'ri keladi⁵.



1.3.5-rasm. To'lov tashkilotlari tomonidan o'tkazilgan to'lovlar maqsadlari bo'yicha tarkibi⁶

Bugungi kunda banklar va to'lov tizimlari raqamli ofis imkoniyatlarini kengaytirmoqda hamda mijozlar uchun yanada rivojlangan raqamli xizmat turlarini ko'lamini kengaytirmoqda. Bu esa mobil bank ilovalarining

⁴ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi www.cbu.uz

⁵ <https://cbu.uz/upload/medialibrary/c2e/jcu9sa4tbwawr6xfqgnyn4ivpbcs2l1/Yillik-hisobot-2024.pdf>

⁶ cbu.uz Markaziy bank ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.



nafaqat oddiy tranzaksiya vositasi sifatida foydalanish, balki ko'p funksionali platformaga aylanayotganidan dalolat beradi.

Shu bilan birga, mobil bank ilovalarida qo'shimcha xizmatlarni joriy etish tendensiyasi ham kuzatilmoqda. Jumladan, avtosug'urta xizmatining ommalashishi va rivojlanishi kuzatilmoqda. "Mening avtomobilim" bo'limi tobora kengayib, hozirda mazkur bo'lim orqali nafaqat jarimalar to'g'risida xabarnomalar olish, balki joriy ishonchnomalar holatini kuzatish, avtomobilga doir qo'shimcha xizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshirish va avtosug'urta polisini rasmiylashtirish ham mumkin bo'lib qoldi.

Bundan tashqari, davlat xizmatlari bilan integratsiyalashuv jarayonlari yo'lga qo'yilgan. Endi ma'lumotnomalarni rasmiylashtirish, shuningdek, turli davlat xizmatlaridan foydalanish bevosita mobil bank ilovalari orqali amalga oshirilish imkoni mavjud.

Ushbu imkoniyatlar hozircha faqat ayrim tijorat banklari tomonidan joriy etilgan va asosiy funksional darajasida bo'lgani sababli, baholash tizimida to'liq inobatga olinmagan. Aniq raqamlarga murojaat qiladigan bo'lsak, 2022-yilda O'zbekistonda faoliyat yurituvchi banklarning mobil ilovalari orqali davlat xizmatlaridan foydalanish, ma'lumotnoma olish yoki avtosug'urta rasmiylashtirish imkoniyatini taklif etmagan. Ammo 2024-yilga kelib bu borada siljish kuzatilmoqda — har ikkala yo'nalishda ham to'rttadan bank ushbu funksiyalarni amaliyotga tatbiq etgan. Bu esa mamlakatda raqamli bank xizmatlarining funksional jihatdan kengayib, aholi uchun qo'shimcha qiymat yaratayotganini ko'rsatadi. 2024-yilda Marksvebb tomonidan banklarning raqamlashganlik holati reytingi ishlab chiqildi. Ushbu reytingga ko'ra tijorat banklarining mobil ilovalari orqali amalga oshirilgan to'lovlar tahlili e'lon qilindi. Olib borilgan tahlil natijalariga ko'ra masofadan ko'rsatiladigan xizmatlardan foydalangan xolda to'lov amaliyotlarini amalga oshirishda eng yuqori darajasi 56,2 foiz bank mijozlari Uzumbank mobil ilovasidan foydalangan bo'lsa, 40 foizini Infinbank mijozlari hissasiga to'g'ri kelmoqda. To'lov ilovalaridan Click to'lov tashkiloti tomonidan amalga oshirilgan operatsiyalar 53,7 foizni tashkil etmoqda.

«Banklarning mobil ilovalari orqali jismoniy shaxslar tomonidan onlayn shaklda amalga oshirilgan operatsiyalar hajmi hisobot yilida 250,1 trln so'mni tashkil etdi. Jumladan:

Onlayn depozit operatsiyalari – 46,5 trln so'm

Onlayn konvertatsiya amaliyotlari – 27,4 trln so'm

Onlayn mikroqarzarlar – 13,3 trln so'm

Kreditlarni so'ndirish operatsiyalari – 15,3 trln so'm

Aholiga bazaviy bank xizmatlarini – omonat ochish, valyuta ayirboshlash, mikroqarzar olish, bank kartasiga buyurtma berish va shaxsiy identifikatsiyadan o'tishni onlayn rejimda amalga oshirish imkoniyatlari yaratildi. Shu bilan birga, tadbirkorlik subektlari uchun hisob-kitob terminallaridan tashqari QR-kod, NFC va boshqa zamonaviy kontaktsiz to'lov texnologiyalari orqali to'lovlarni qabul qilish xizmatlari kengaytirildi»⁷.

Bugungi kunda mamlakatimizda bank xizmatlarini diversifikatsiyalash, aholi va tadbirkorlik subektlariga yangi turdagi moliyaviy xizmatlarni taqdim etish, shuningdek, bank infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, raqamli moliya, masofaviy xizmat ko'rsatish va zamonaviy to'lov texnologiyalarini joriy etish bo'yicha muhim natijalarga erishilmoqda.

Shu bilan birga, mamlakat bank tizimida hali-hamon yechimini topmagan bir qator tizimli muammolar mavjud bo'lib, ular moliyaviy xizmatlardan foydalanish samaradorligi va shaffofligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Jumladan:

1. Milliy to'lov tashkilotlarining xalqaro to'lov tizimlari bilan to'liq integratsiyalashmaganligi — bu holat mamlakat fuqarolarining chet elda amalga oshiradigan to'lovlari, xalqaro onlayn xaridlar yoki transchegaraviy pul o'tkazmalarida muammolar kelib chiqishiga olib keladi. Shuningdek, bu holat xorijiy investisiyalar va turizm salohiyatini ham cheklashga olib kelishi mumkin.

2. Aholiga xizmat ko'rsatish jarayonida shaxsni identifikatsiyalashda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish darajasi past — bu esa bank xizmatlarining tezkorligi, ishonchligi va xavfsizligiga salbiy ta'sir qilib, ayniqsa, masofaviy xizmat turlarini keng joriy etishda to'siq bo'lib turibdi. Biometrik identifikatsiya, elektron identifikatsiya (e-ID), «Facye ID» va «Voicye ID» texnologiyalari ko'plab davlatlarda keng qo'llanilayotgan bir paytda, ushbu yo'nalishdagi taraqqiyot hali yetarlicha emas.

3. Bank mijozlari talab va ehtiyojlarini o'rganishda ijtimoiy so'rovlar, anketalash va analitik tadqiqotlarning yetarli darajada olib borilmayotganligi — natijada mijozlar uchun moslashtirilgan, maqsadli xizmatlar yaratishda muammolar yuzaga kelmoqda. Banklar o'z mijozlarini chuqur o'rganmagani sababli, xizmatlar va mahsulotlar ko'pincha umumiy tarzda taqdim etiladi, bu esa raqobatbardoshlikka salbiy ta'sir qiladi.

Bank infratuzilmasini yanada rivojlantirish orqali xalqaro to'lov tizimlariga integratsiyalashuv jarayonlarini takomillashtirish va milliy hamda xalqaro valyutadagi to'lov o'tkazmalarining uzluksizligini ta'minlash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu yo'nalishda olib borilayotgan tadqiqotlar asosida bir qator amaliy takliflar ilgari surildi.

⁷ <https://cbu.uz/upload/medialibrary/c2e/jcu9sa4tbwawr6xfqgnyn4ivpbc7s2l1/Yillik-hisobot-2024.pdf>



Hozirgi kunda Visa, Master Card kabi xalqaro to'lov tizimlari orqali amalga oshiriladigan to'lovlarni mahalliy to'lov tashkilotlari platformalari orqali amalga oshirish imkoni mavjud emas. Bunday to'lovlar faqatgina ushbu kartalarni taqdim etuvchi banklarning maxsus mobil ilovalari orqali bajariladi. Bu esa mamlakatimizga tashrif buyuruvchi xorijiy fuqarolar — ayniqsa turistlar uchun to'lov jarayonlarida muayyan noqulayliklarni keltirib chiqarmoqda.

Shu munosabat bilan, mahalliy to'lov tashkilotlarini xalqaro to'lov tizimlariga integratsiyalash imkonini beruvchi bank infratuzilmasini rivojlantirish asosida milliy va xalqaro valyutadagi to'lov o'tkazmalarini amalga oshirish vositalarini diversifikatsiyalash orqali to'lovlarning uzluksizligini ta'minlash taklif etilmoqda. Ushbu taklif rivojlanayotgan davlatlar moliyaviy sektorida to'lov tizimlari barqarorligini mustahkamlash va moliyaviy inklyuzivlikni oshirishga qaratilgan xalqaro amaliyotlarga mos keladi (World Bank, 2021).

Mazkur taklifning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- turistlar, mehnat migrantlari va mahalliy fuqarolar uchun to'lovlarni amalga oshirish jarayonida qo'shimcha qulayliklar yaratiladi, bu esa xizmatlar sohasida o'sish imkoniyatlarini kengaytiradi;
- valyutani konvertatsiya qilish va xalqaro to'lovlarni amalga oshirish jarayoni soddalashtiriladi, bu operatsion xarajatlarni kamaytirish va transchegaraviy to'lovlar tezligini oshirishga xizmat qiladi (BIS, 2020);
- mahalliy to'lov ilovalari orqali xalqaro to'lov kartalaridan bevosita xaridlar uchun to'lovlarni amalga oshirish imkoniyatini yaratish, bu orqali naqd pulga bo'lgan ehtiyojni kamaytirish va raqamli iqtisodiyot rivojlanishini rag'batlantirishga xizmat qiladi;
- xalqaro to'lov tizimlari bilan to'liq integratsiya yo'lga qo'yilishi natijasida milliy to'lov tizimi infratuzilmasining jozibadorligi va raqobatbardoshlik darajasi oshadi hamda shu asosda xorijiy investisiyalarni jalb qilish uchun qulay muhit shakllanadi.

«2023-yil ma'lumotlariga ko'ra, xalqaro moliyaviy integratsiya darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda to'lov tizimlarining o'rtacha ishlash samaradorligi 25–30% ga yuqori bo'lishi aniqlangan (IMF, 2023). Shu jihatdan, ushbu taklif mamlakat moliyaviy tizimi barqarorligini mustahkamlash va xalqaro moliyaviy muhitga moslashishini tezlashtirishga xizmat qilishi mumkin»⁸.

Xulosa o'rnida aytish joizki, ushbu taklif bank infratuzilmasini modernizatsiya qilish, raqamli moliyaviy xizmatlar ko'lamini kengaytirish hamda xalqaro moliyaviy integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, tijorat banklarida innovatsion xizmatlar va texnologiyalarni joriy etish banklarni transformatsiyalashni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun kompleks yondashuv va muayyan usullarni talab qiladi. Ya'ni banklarni transformatsiyalashning aniq strategiyasini ishlab chiqish, innovatsiyalar uchun maqsadlar, ustuvorliklar va harakat rejalarini belgilashni talab qiladi va transformatsiyalash jarayonida quyidagilarni inobatga olish muxim hisoblanadi;

- yangi texnologiyalar va xizmatlarni joriy etish uchun fintech kompaniyalari va startaplar bilan hamkorlik qilish;
- yangi texnologiyalar va ish uslublari bo'yicha xodimlar uchun ta'lim dasturlari va treninglar o'tkazish.
- mijozlar ehtiyojlarini o'rganish uchun ma'lumotlar tahlilidan foydalanish va mahsulot innovatsiyasini doimiy ravishda yaxshilash uchun fikr-mulohazalarni yig'ish.
- mijozlarni autentifikatsiya qilish xavfsizligi va qulayligini oshirish uchun biometrik texnologiyalarni (barmoq izlari, yuz skanerlash va boshqa biometrik ma'lumotlar) joriy etish.
- O'zbekistonda banklarni transformatsiyalash banklarga o'z xizmat turlari raqamli formatga o'tkazish orqali mijozlarga tez va samarali xizmat ko'rsatish sifatini oshirishga olib keladi. Bu, o'z navbatida, mijozlar bazasini kengaytirish va ularning banklarga bo'lgan ishonchini oshirish imkonini beradi.
- Banklarga moliyaviy texnologiyalarni (FinTech)larni joriy etilishi O'zbekistonda FinTech kompaniyalari bilan hamkorlik qilish banklarning innovatsion xizmatlarini takomillashtirishga yordam beradi. Bu esa raqobatbardoshlikni oshirish va yangi biznes modellarini joriy etish imkonini beradi.
- Bank mijozlarga innovatsion texnologiyalarni qo'llash mijozlarga individualashtirilgan xizmatlarni taklif etish imkonini beradi. Misol uchun, sun'iy intellekt va ma'lumotlarni tahlil qilish orqali mijozlarning ehtiyojlarini aniqlash va ularga mos xizmatlarni taklif etish mumkin.
- Banklarda kiber xavfsizlikni oshirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish bilan birga, kiber xavfsizlikka alohida e'tibor berish zarur. Banklar mijozlarning ma'lumotlarini muhofaza qilish va xavfsizlikni ta'minlash uchun zamonaviy yechimlarni joriy etishi kerak.

8 International Monetary Fund (IMF) (2023). Financial Integration and Development Report. Washington, D.C.: IMF.



Ushbu taklif va tavsiyalarni amaliyotga joriy etilishi, banklarda innovasion xizmatlar va texnologiyalarni muvaffaqiyatli joriy etishga, mijozlar tajribasini yaxshilash, biznes jarayonlarini optimallashtirish va moliya bozorida raqobatbardoshlikni yanada oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Skinner K. Будущее bankinga / K. Skinner. Predisloviye. – 2007
2. Makarenko G. (2019). "Kak innovatsiya izmenyat bankovskuyu otasly Rocsii" elektronnyy resurs:<https://trends.rbc.ru/trends/innovation/5d63fd8f9a7947e067dayea90>.
3. Ortaköy, Selman, and Zehra Özsürünç. 2019. The Effect of Digital Channel Migration, Automation and Cyentralization on the Efficiency of Operational Staff of Bank Branches. Procyedia Computer Sciencye 158: 938–46. [CrossRef].
4. Hussain S. Bank transformation practicyes around the operation, maintenancye monitoring, and chaos engineeyering. <https://medium.com/cloud-beliyeyers/banktransformation-practicyes-around-the-operation-maintenancye-monitoring-and-chaosengineeyering-c7ye958745815>.
5. Shashkina Ye.O. Vliyaniye finansovykh texnologiy na transformasiyu bankovskogo sektora ekonomiki: zarubejnyy i otechestvennyy opyt. Disser.na sois. uchen.step. kand. ekon. nauk po spes. 5.2.4. Finansy. Moskva – 2022. 35-36 str.
6. Serebrennikova A.I. Suщnost i problemy vnedreniya innovasiy v bankax. //Bankovskoye delo. 2020. № 1. S. 68–73. Sokolinskaya N.E. Mexanizmy informacionnogo i nauchnotexnologicheskogo obespecheniya innovasiy v bankovskoy sfere v usloviyax sifrovoy ekonomiki. //Bankovskoye delo. 2020. № 2. S. 25–30.
7. Ma X., Men Ch., Yan D., Van X. Sifrovaya transformatsiya Kitaya. -M.: Alpina Pablisher, 2019. 249 s.
8. Vayl P., Vornier S. Sifrovaya transformatsiya biznesa. -M.: Sberbank; Alpina Pablisher, 2019. 215
9. Kravchenko D. Mirovyie tendensii v mobilnom bankinge (2014)
10. Radkovskaya, N.P. Metodologiya finansovogo menedjmenta i upravleniya pribylyu kreditnykh organizatsiy: avtoref. d-ra ekonom. nauk // Nauchnaya biblioteka dissertatsiy i avtoreferatov disserCat [Elektronnyy resurs].



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
